
Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining oltinchi chaqiriq sakson to'rtinchi sessiyasi bo'lib o'tdi

Bugungi sessiyada kun tartibiga kiritilgan masalaga daxldor tashkilot rahbarlari ishtirok etdilar. Sessiya ishini xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashi raisi Vosiljon Nazarov ochdi va olib bordi.

Sessiya kun tartibida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

Farg'ona shahar Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan 2022 yilda amalga oshirgan hamda 2023 yilda amalga oshirilishi belgilangan ishlar, kutilayotgan natijalar haqida (Ma'ruzachi: Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i Jahongir Baxtiyorov)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 16 avgustdagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman(shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha namunaviy kontseptsiyani tasdiqlash to'g'risida"gi 450-son qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqida (Farg'ona shahar Mahallabay ishlash va kambag'alchilikni qisqartirish markazi boshlig'i G'iyosbek Xaydarov)

2022 yil davomida "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan ajratilgan mablag'lar haqida (Ma'ruzachi: Saxovat va ko'mak jamg'armasi bosh hisobchisi Kamrlaxon Yusupova)

Shuningdek, sessiya kun tartibida Farg'ona shahar hokimining 2023 yil 26 yanvardagi 43-11-169-Q23-sonli va 2023 yil 1 mart kungi 84-11-169-Q23-sonli qarorlarini tasdiqlash, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila vakillari tomonidan sektor rahbarlari nomiga hamda sayyor qabullarda fuqarolardan moddiy yordam so'rab tushgan murojaatlar uchun "Saxovat va ko'mak" jamg'armasidan mablag' ajratish hamda Farg'ona shahar davlat soliq inspeksiyasi depozitiga foydalanish uchun mablag' o'tkazish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari tomonidan muhokama, taklif va mulohazalardan so'ng qaror loyihalari deputatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-10 09:46:23